

BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FAN DARSLARIDA “SAYYORALAR” MAVZUSINI O'RGATISH**Toshtanova Shoira Avalboyevna***Toshkent shahar Yangihayot tumani**8 - umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda tabiat darsining planetalarga bog'liq mavzularini mustahkamlash jarayoni ko'rsatib o'tilgan. Darsni qiziqarli o'tish uchun guruhlarga bo'lish metodi qo'llanilgan.*

Kalit so'zlar: *tasavvurlar, sayyora, modellashtirish, guruhga bo'lish, osmon hodisalari.*

Boshlang'ich sinflarda bolalarni o'qitishning qulay sharoitlaridan foydalanib, fanlararo bog'lanishni to'la darajada amalga oshirish zarur. Atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda shakllantiriladigan aniq tasavvurlar boshqa predmetlar bo'yicha vazifalarni hal qilishga yordam beradi va aksincha. Fanlararo aloqa nutqni rivojlantirish kabi vazifalarni hal qilishda amalga oshiriladi.

Darslik rasmlar bilan bezatilgan, ularga savol va topshiriqlar berilgan. Ularning ba'zilari o'qituvchiga bolalar e'tiborini tabiat jismlari va hodisalarining har xil xususiyatlari, belgilarini aniqlashga, bu bilan dars mavzusi bo'yicha faktik materialni umumlashtirishga qaratishga yordam beradi. Savol hamda topshiriqlarning guruhi ikki yoki bir nechta rasmlarni o'zaro taqqoslashni talab qiladi yoki tabiat va odamlar mehnatidagi ba'zi sabab bog'lanishlarni ochishni taklif qiladi. Darslikning savol va topshiriqlari o'qituvchiga bolalar e'tiborini maqola mazmuniga qaratishga, undagi asosiy jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Savollar yordamida bolalar o'rganiladiganlarni chuqur va ravshanroq tasavvur qiladilar.

Darslikning asosiy g'oyasi - insonning tabiat bilan o'zaro aloqasi, inson mehnatining tabiatdagi ahamiyati, unda yurish-turishning qoidalaridir. Ijtimoiy hayotning hodisalariga bag'ishlangan maqolalari bolalar e'tiborini inson, jamiyat va tabiatning birligiga qaratadi.

Tabiatshunoslikni alohida o'quv fani sifatida o'qitish 4-sinfda ham davom etadi. O'quv materiallari "Yer - Quyosh sistemasidagi sayyora", "Yer yuzi tabiatining xilma-xilligi", "Vatanimiz bo'ylab sayohat" mavzulariga birlashtirilgan.

"Yer - Quyosh sistemasidagi sayyora" mavzusini o'rganishning boshlanishida bolalar yozgi topshiriqlarga yakun yasaydilar, jonajon o'lka tabiati to'g'risidagi materialni takrorlaydilar, keyin "Yulduzlar", "Quyosh" mavzulari bilan tanishadilar. Amaliy ish va mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ayrim narsalarni, sinfni, maktab maydonchasini rejada qanday tasvirlash kerakligi bilan tanishadilar.

"Quyosh" mahalliy belgilar, kompos bo'yicha orientirlashga o'rganadilar. Bu mavzucha o'quvchilarni geografiya xaritasini tushunishga olib kelish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi. O'z joyini o'rganishga asoslanib, o'qituvchi o'quvchilarda O'zbekistonning tabiiy xaritasi to'g'risida, boshlang'ich tasavvurlar hosil qiladi. Xarita bilan ishlash butun o'quv yili davomida davom etadi.

Masalan, "Cho'lda Quyosh yozda ufqdan yuqoriga ko'tariladi va deyarli tik tushuvchi nurlari Yer yuzasini kuchli qizdiradi yoki "Tundrada, hatto yozda ham Quyosh ufq ustida

pastda turadi va uning nurlari yer yuzasi bo'ylab qiya holda o'tadi, uni kuchsiz ravishda qizdiradi". O'quvchilar yil fasllari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, qishloq xo'jaligidagi odamlar mehnati to'g'risida hikoya qilayotganlarida bunday talqinlarga asoslanishlari kerak. Mantiqiy mulohazaning bunday izchilligi faqat ushbu mavzuninggina emas, balki ilgari mavzuning ham - Yerning sharga o'xshashligi va uning holatini Quyosh atrofida yillik harakati vaqtida o'zgarishi to'g'risidagi materialni ongli o'zlashtirib olinishiga yordam beradi.

Boshlang'ich talimda guruhlariga bo'lish orqali dars o'tish juda ham foydali bo'ladi. O'quvchilar raqobat texnologiyasi asosida o'rganishga o'rganib qolishgan. Shuning uchun mavzularni mustahkamlash darslarida Planetalarga oid mavzularni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash va mustahkamlash uchun ularni uch guruhga bo'lish mumkin.

O'quvchilar o'z guruhlariga mos rasmlar chizib kelishadi. Baholash tizimi uchun o'qituvchi "yulduzlar" asosida uning qirralari asosida ball bergan holda guruhlarini ballarini jamlab boradi.

Har bir guruh darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'z berilgan mavzulari bo'yicha tanishtiruv tarzida javob berishadi.

«Yer» guruhi: «Quyosh» guruhi: «Oy» guruhi:

Yer - quyosh sistemasida hayot mavjud bo'lgan yagona Quyosh yog'du sochib turgan yulduzlardan biri. Yulduzlar Sayyora atrofida doimiy aylanib yuradigan yirik osmon sayyora. Uning diametri 12 800 km. Ekvator uzunligi, ya'ni Yer sharining qoq o'rtasidan o'tgan aylana - 40 000 km. qanday holatda bo'lsa, Quyosh ham shunday holatdadir. Quyosh sarg'ish rangli, o'rtacha kattalikdagi yulduz hisoblanadi. jismi tabiiy yo'ldosh deyiladi, Yer sayyorasining yo'ldoshi Oydir.

Yer Quyosh atrofini bir marta aylanib chiqishi uchun 365 sutka 6 soat vaqt ketadi. Yer shari barcha narsalarni o'ziga tortadi. Quyosh nuri Yerga 8 minutda yetib keladi. Uning sirtidagi harorat +6 000 C0 daraja atrofida bo'ladi. Quyoshning diametri Yernikidan 109 marta katta. Oy Yer atrofini 27 kun-u 8 soatda bir marta aylanib chiqadi. Uning diametri 3 500 km, ya'ni yernikidan 4 marta kichik.

Dunyoning siyosiy xaritasida O'zbekiston hududi alohida ko'zga tashlanib turadi. Mamlakatimiz yer maydoni 448 900 kv. km.ni tashkil etadi. Quyosh atrofida 8ta sayyora aylanadi. Ular Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun. Oyning Yerdan uzoqligi 384 400 km. Oy yumaloq sharga o'xshaydi. Sirti Yernikiga o'xshamaydi. Unda o'simliklar ham, hayvonlar ham yo'q, jonsiz tabiat hukmron.

O'lkamiz tabiati g'oyat go'zal, shaharlari juda maftunkordir. Go'zal tabiatni asrash har birimizning muqaddas burchimiz! Quyosh bepoyon olamga tinimsiz yorug'lik taratib turadi. Yer yuzida hayotni Quyoshsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. «Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'», degan xalq maqolini eshitgansiz. Bu haqiqat. Chunki oyning charog'onligi 15 sutka davom etadi.

Baholash uchun jalb qilingan ustozlar ularni baholab borishadi. Birinchi tanishtiruv bosqichidagi ballar e'lon qilingandan so'ng, guruhlariga umumiy muammo beriladi. Har bir guruh ushbu muammoning yechimini birgalikda muhokama qilib, keyin eshittiradilar va rasmda ifodalab beradilar.

Masalan, Muammo: faraz qilaylik, uyda suv yo'q. Ya'ni 1 chelak (10 l) suv faqat 1 kunga yetadi. Uyda har kunlik yumushlarni qanday bajarish mumkin?

Muammo: Quyoshni kundalik turmush tarzimiz orqali qayerlarda foydalanamiz. Quyosh energiyasidan qayerlarda foydalanish mumkin.

Yuqoridagi muammoli savollar bo'yicha javob berish uchun 2 daqiqa tayyorgarlik vaqti beriladi.

Javoblar berilgandan so'ng bu shart bo'yicha ham baholash natijalari e'lon qilinadi.

Keyingi shart «Amaliy mashg'ulot» tarzida olib boriladi

(Bu shartda o'quvchilarning xarita va globus bilan ishlash ko'nikmalari tekshiriladi. Guruh qatnashchilaridan biri xaritadan berilgan topshiriqni bajaradi).

1- topshiriq: O'zbekiston bilan chegaradosh mamlakatlarni ko'rsating.

2- topshiriq: Globusdan foydalangan holda materiklar nomini yozing.

Dars o'qituvchisi: Bellashuv davomida o'quvchilarimizning osmon hodisalari va tabiat sir-sinoatlariga qiziqishlari nechog'lik baland ekaniga guvoh bo'ldingiz. Shu tirishqoq, ilmga chanqoq bolajonlarimiz yillar davomida o'qib-o'rganib, izlanib, bu bilimlarini yanada kengaytirib, boyitib borishlariga umid qilamiz deb darsdagi g'oliblarni tabriklaydi va ularning rag'bat kartochkalari bilan g'olibni aniqlaydi ya'ni bu darsda yulduzlar soni bilan olib borildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahramov A., "Tabiatshunoslik." Darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyoti 2014.
2. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T., 2005.
3. Kasimakhunova, A. M., Zokirov, S. I., & Norbutaev, M. A. (2019). Development and Study of a New Model of Photothermogenerator of a Selective Radiation with a Removable Slit. *Development*, 6(4).
4. Abduqaxxorovich, O. S., Mamasadikovna, K. A., Kamildjanovna, M. L., Roziyaxon, N., Og'li, Z. S. I., & Abdurasulovich, N. M. (2018). Development and research of heterostructures with an internal thin layer based on p-type silicon. *European science review*, (9-10-1), 183-185.
5. Kasimaxunova, A. M., Norbutaev, M., & Baratova, M. (2021). Thermoelectric generator for rural conditions. *Scientific progress*, 2(6), 302-308.
6. Kasimaxunova, A. M., Norbutaev, M., & Baratova, M. (2021). Thermoelectric generator for rural conditions. *Scientific progress*, 2(6), 302-308.